

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Qudratova Kamola Bahodir qizi

*“5210200 “Psixologiya” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun*

*“ O‘qituvchi qobiliyati va uning psixologiyada o‘rganilishi ”
mavzusida yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : dots.M.Fayziyeva

“Himoyaga tavsiya etildi”

Pedagogika fakultet

dekani _____ dots. F.Ochilov

“ _____ ” _____ 2019 йил

Qarshi - 2019

KIRISH

**I BOB. O`QITUVCHI QOBILIYATLARINING PSIXOLOGIYADA
O`RGANILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

1.1.Qobiliyat va pedagogik qobiliyatining psixologik-pedagogik tavsifi.....

1.2. Pedagogik qobiliyat, uning turlari va mohiyati.....

**II.BOB. O`QITUVCHI PEDAGOGIK QOBILIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH SHART-SHAROITLARI**

2.1.Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....

2.2.Psixologiyada pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirish va uning
psixodiagnostikasi.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq ta'lim muassasalarining oldiga muhim yangi va ustuvor vazifalarni qo`ydi. Har tomonlama rivojlanishda oldinda borayotgan jamiyatimiz bugungi kunda ta'lim sohasida milliy modelimizga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini ko`ndalang qo`ymoqda. Bu esa bugungi kunda ta'lim sohasida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o`rgangan holda emas, balki har tomonlama rivojlangan barkamol inson, muomala madaniyatiga ega bo`lgan, o`z ishining mohir ustasi etib tayyorlashga katta e'tibor berishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo`ljak o`qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va qobiliyat bilan qurollangan, o`z fanini sevadigan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda.

Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o`quvchi shaxsiga uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog`liq kelajagiga alohida e'tibor qaratilayotgan ekan, bu jarayonda har bir o`quvchidagi o`quv faolligini namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o`rganish, tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda eng avvalo ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilim orttirishdagi muvaffaqiyatning faqat bir o`zi bilan qobiliyatni aniqlab bo`lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka, va ko`nikmalarini egallashda namoyon bo`lsa ham ular bilim, ko`nikmalarga taalluqli bo`lmaydilar.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo`lishi bilim, malaka, ko`nikmalar bilan aynan bir narsa bo`lmasa-da, ular bir - birlari bilan bog`liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko`nikmalarning o`zida ko`rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo`ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo`lgan bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon

bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi. Demak, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual - psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlari yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlari boshqacha aytganda, qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bularni egallash jarayoni cho'zilib ketadi, pedagogdan ko'p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchi pedagogik qobiliyatining nazariy asoslarini aniqlash hamda pedagogik qobiliyatni yanada rivojlantirishda mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarni yoritishdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma'lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar olimlar izlanishlar olib borganlar.

Insonning imkoniyatlarini o'rganishga Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Ananov, N.V. Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasisheva), G'arb olimlari (A.Bine, T.Simon, F. Galton, V.Shtern, U. Olloport, K.Rodgers) kabilar katta hissa qo'shganlar. Ushbu muammo ustida O'zbekiston psixolog olimlari (E.G'oziyev, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, V.A.Tokareva va boshqalar) ham izlanish olib borganlar.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlari juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga,

ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar.

Ch. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin.

Rus psixologi **A.G.Kovalyev** o'z tadqiqotlarida qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan.

Qobiliyatlarni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori" asari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

Shuningdek, tadqiqotning metodologik asosi sifatida A. Xoliqov, A. Rasulov, M. Maxsudovalarning qobiliyat hamda pedagogik qobiliyalarning pedagogik va psixologik yo'nalishlarda olib borgan ilmiy izlanishlari, yaratgan darsliklari, o'quv qo'llanmalari, fikr-mulohazalari olindi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Qarshi shahar 14-sonli o'rta umumta'lim maktabining 20 nafar o'qituvchilari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: O`qituvchilarda mavjud umumiy pedagogik qobiliyatlarini o`rganish va ularni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Mavzuga oid pedagogik, psixologik, falsafiy yo`nalishidagi manbalarni o`rganish, tahlil qilish va umumlashtirish.

2. Ta'lim samaradorligini oshirishda o`qituvchi pedagogik qobiliyati xususiyatlari va uni rivojlantirishda pedagogik-psixologik shart-sharoitni o`rganish.

3. O`qituvchining pedagogik qobiliyatni namoyon etishida kasbiy fazilatlar shakllanganlik darajasini tahlil etish va ulardan tatbiqiy tizim ishlab chiqish.

4. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishga texnologik yondashuv ilmiy jihatdan asoslash.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari:

1. Anketa, suhbat, savol-javob, o`rganish.

2. O`qituvchi shaxsining kasbiy yo`nalganligini baholash

3. O`qituvchi shaxsiy fazilatlarini o`rganish so`rovnomasi

4. O`qituvchining shaxslararo munosabat darajasini baholash

5. O`qituvchi shaxsi yo`nalishini aniqlash metodikasi savolnomasi

6. «O`qituvchining psixologik qiyofasini o`rganish» testi

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda qobiliyatli pedagoglarning o`rni beqiyosligi aniqlandi. Maxsus va umumiy qobiliyatga ega bo`lgan pedagog kadrlar ta'lim sifatini takomillashuviga yaqqol ta'sir ko`rsatishi tadqiqot davomida o`z isbotini topdi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi: kirish, ikki bob, 6 bo`lim, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat /

I BOB. PEDAGOGIK QOBILIYATLARNING PSIXOLOGIYADA O`RGANILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Qobiliyat va pedagogik qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo`lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig`indisiga aytiladi. Qobiliyatlar bilim, ko`nikma, malaka orttirish xususiyatiga bog`liq bo`ladi. Lekin bilim, ko`nikma va malaka orttirish qobiliyat emas, balki u ularni o`zlashtirishdagi layoqati, mahoratida namoyon bo`ladi, ular asosida bilim, ko`nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo`ladi. Voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok etishda, masalan, ranglarni tovlanishidagi nozik farqlarni ajratishda, narsalarni aniq ko`rishda, absolyut eshitish (musiqani farqlashda), kuzatuvchanlikda, xotirada, fikrlash (tez, mustaqil) jarayonida ixtirochilik va ijodda yaqqol ko`rinadi. Qobiliyat kishining muayyan faoliyatga bo`lgan layoqatidir.

Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatiga bo`lgan layoqatidir. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo`ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o`qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi.

Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo`jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo`ladi.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo`ladi, lekin, shu bilan bir qatorda, ko`pchilik faoliyatning bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo`ladi.

Demak, layoqat-qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo`ladigan miya tuzilishining, sezgi a`zolari va harakatning morfologik hamda funksional xususiyatidir va u qobiliyatning fiziologik asosidir. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste'dodidir. Iste'dod inson qobiliyati taraqqiyotining eng yuksak darajasini ta'minlovchi tug`ma

tabiiy imkoniyatlar yig`indisidir. Iste`dodning rivojlanishi shaxsning yashash sharoitiga, ijtimoiy ta`lim-tarbiyaga, uni faoliyatdagi faolligiga bog`liqdir.

Kishining «mudrab yotgan» imkoniyatlari faoliyatga kishi faollik ko`rsatmasa u imkoniyatlarni «uyg`onishi» mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy shart-sharoit, qulay muhit, qulay ta`lim-tarbiyaviy sharoit, o`qish, o`z ustida tinmay ishlash zarur bo`ladi.

Kishining iste`dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o`shishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o`z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

Qobiliyatlar umumiy va mahsus bo`ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo`lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug`ullana oladi. Masalan: kuzatuvchanlik, konstruktiv hayol, tez fikrlay olish kabilar ma`lum darajada barcha faoliyat turiga xosdir. Umumiy qobiliyatga ega bo`lgan o`quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiynalmay o`qiydilar.

Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug`ullanish imkonini beradi. Masalan: musiqa, texnika, matematika, rassomchilik qobiliyatlari maxsus qobiliyatdir. Qobiliyatlar o`zining sifat va miqdor darajasi bilan xarakterlanadi.

Qobiliyatning sifat xarakteristikasi – shaxsning qobiliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo`lishini, qanday individual psixologik xususiyatlar faoliyat jarayoni muvaffaqiyatining zaruriy sharti ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan: O`qituvchi tashabbuskorlik, talabchanlik, mehribonlikni his qilish, kuzatuvchanlik, kashfiyotchilik, javobgarlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo`lishi kerak.

Qobiliyatlarning miqdor xarakteristikasi shaxsning bilim, ko`nikma va malakalarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallashi bilan xarakterlanadi.

Har bir odamning qobiliyat va iste`dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug`ma layoqati asosida, muhitga bog`liq ravishda olayotgan ta`lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o`z ustida ishlashi bilan bog`liq holda o`sib, kamol topib boradi. Inson o`z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo`lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy

kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinktlar, tug'ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Tug'ma layoqat – tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga chiqa oladi.

Tug'ma layoqatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o'sish natijasi hamdir. Layoqat – kishidagi tug'ma imkoniyatdir.

Layoqat kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga yetmaydi. Layoqat hali kishida «mudrab yotgan» imkoniyatlardir. Bu layoqatning «uyg'onib» yuzaga chiqishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Layoqatni xuddi urug'ga o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit: tuproq, havo, quyoshning bo'lishi darkor. Kishidagi tug'ma layoqatning o'sib kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Ijtimoiy muhit layoqatlarning o'sib, kamol topishi uchun qulay yoki noqulay bo'lmog'i mumkin.

Ta'lim jarayonida kishi maxsus ko'nikmalar va faoliyat texnikasini egallaydiki, ularsiz uning na iste'dodi yuzaga chiqadi va na qobiliyati o'sib yetiladi. «Men foydalangan texnikaning rivojlanganligi soyasidagina, – deb yozgan edi A. N. Rimskiy-Korsakov, – mening ijodiyotim yangi jonli kuchga ega bo'ladi va mening bundan buyon ijodiy faoliyatim uchun yo'l ochildi».

Har bir shaxsning o'zi faol harakat qilgandagina ijtimoiy muhit, o'qish va tarbiya kishining layoqatini uyg'otmog'i va iste'dod hamda qobiliyatlarini o'stirmog'i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o'sadi va tarkib topadi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi mamlakatimizda xalq ta`limi tizimining o`zbek modelini belgilab beruvchi “Ta`lim to`g`risida qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni qabul qildi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da inson omiliga g`oyat katta ahamiyat berilgan. Unda asosiy e`tibor bilimdon, ijodkor, haqiqiy kasb egasi bo`lgan shaxsni tarbiyalab, etkazishga qaratilgan.

O`quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish uchun o`qituvchining o`zi shunday bilimga ega bo`lmog`i lozim.

Shuning uchun ham hozirda yangi turdagi o`rta maxsus bilim yurtlarida dars berish qobiliyatiga ega bo`lgan pedagoglarni tayyorlash masalasi jiddiy qo`yilmoqda.

Qobiliyatlar bilimlar, ko`nikmalarda emas, balki ularni egallash dinamikasida ya`ni bilim, ko`nikmalar qanday sharoitda tez, chuqur va oson egallanishida namoyon bo`ladi. Bu tushunchadan bugungi kunda ham foydalaniladi.

Ushbu tushunchaning yangiligi va to`laligi nimada? Ushbu tushunchada qobiliyatlar bilim, ko`nikma va malakalarga tenglashtirilmay, ularga nisbatan insonning munosabati, bilim, malaka va ko`nikmalarni o`zlashtirish yengilligi, tezligi va chuqurligi, hamda ularni ma`lum bir faoliyatni engil o`zlashtirishida va shu faoliyatning muvaffaqiyatli bajarishda namoyon bo`ladi.

Shunday qilib, qarama-qarshiliklarni yengish hamda haqiqatni izlash oqibatida olimlar quyidagi xulosaga keldilar. “qobiliyatlar shaxsning individual psixologik xususiyati bo`lib, unga bilimlar, ko`nikmalar va malakalarni o`zlashtirilishining to`liqligi, tezligi, engilligi, chuqurligi hamda turli faoliyatni o`zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarishga bog`liqdir”. Bu tushunchani psixologiyasiga yirik Rossiya olimi B.M.Teplov (1896-1965) kiritgan bo`lib, u bugungi kunda keng tarqalgandir.

Yuqorida aytib o`tilganidek, B.M.Teplov qobiliyatlarining umumiy nazariyasini ishlab chiqishga o`z xissasini qo`shgan B.M.Teplovning fikricha “qobiliyatlar” tushunchasi o`z ichiga 3 g`oyani qamrab oldi.

“Birinchidan qobiliyatlar deganda, bir odamni boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar tushuniladi...”.

“Ikkinchidan qobiliyat deganda, har qanday individual psixologik xususiyatni emas, biror bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta`minlovchi xususiyat tushuniladi”.

“Uchinchidan qobiliyatlar odamning bilimlari, ko`nikmalari va malakalariga tenglashtirilmasligi lozim”.

B.M.Teplovning fikricha qobiliyatlar doimiy rivojlanishdagina mavjud bo`lishi mumkin.

Rivojlanmagan, amaliyotda qo`llanilmaydigan qobiliyat vaqt o`tishi bilan yo`qoladi.

Endi zamonaviy psixologiyada qobiliyatlarning klassifikatsiyasini ko`rib chiqamiz. Psixologiyada tabiiy va maxsus insoniy qobiliyatlar ajratiladi.

Tabiiy qobiliyatlar-bu idrok, xotira, tafakkur va boshqa oddiy psixik jarayonida namoyon bo`lish qobiliyatidir. Ular inson va hayvonlarda tabiiydir. Insonda ijtimoiy muhitga moslasha olish qobiliyati mavjuddir. Bu umumiy va maxsus aqliy qobiliyatlar, nutq va mantiqdan foydalanganda, shaxslararo, predmetlararo munosabatlarda namoyon bo`ladi.

Umumiy qobiliyatlar-insonni turli faoliyat yo`nalishlarda muvaffaqiyatini ta`minlaydi.

Maxsus qobiliyatlar insonni biror-bir maxsus faoliyat yo`nalishidagi muvaffaqiyatini ta`minlaydi va uning namoyon bo`lishi uchun maxsus layoqat bo`lishi lozim.

Bunday qobiliyatlarga musiqaviy, matematik, texnik, adabi-ijodiy, pedagogik va bshqalar kiradi.

Musiqiy qobiliyatlar B.M.Teplov tomonidan o`rganilib, unda musiqiy qobiliyatlar zaminida individual-psixologik xususiyatlar kompleksi yotib, ular shaxsda musiqaviy shakllantirishga xizmat qiladi, deb ko`rsatilib o`tiladi.

B.M.Teplov musiqaviylikni tizimini ko`rib chiqadi va quyidagilarni kiritadi: musiqani eshitish xususiyati, musiqa ritmi va musiqiy xotira.

Matematik qobiliyatlar ustida V.A.Krutestkiy ishlagan. Jumladan u “Matematik qobiliyatlar psixologiyasi” monografiyasida matematik qobiliyatlar va ularning tizimini yoritib bergan.

U idrok, tafakkur, xotira-xayolning individual xususiyatlarini aniqlab, ularni matematik faoliyatida namoyon bo`lishini (matematik o`zlashtirishda) tadqiq qilgan.

Matematik materialni o`zlashtirishda idrokning ahamiyatini aniqlagan V.A.Krutestkiy qobiliyatli o`quvchilarda o`ziga xos materialni “ichki” analitik-sintetik tahlil qilish, qayta ishlash xususiyati, “joyida” masalani tizimini idrok etib, uni asosiy munosabatlarini ochadilar, deb hisoblaydi. Matematikaga alohida iste`dodi bo`lgan o`quvchilar o`ziga xos “matematik aql” bilan xarakterlanadilar, ular borliqning mantiqiy va matematik mazmunini topa oladilar, ulardagi mantiqiy va matematik kategoriyani aniqlaydilar, ko`pincha hodisalarni matematik munosabatlar nuqtai nazariyasi orqali qabul qiladilar.

Tasviriy san`atga xos qobiliyatlari psixologiyasi kitobida tasviriy qobiliyatning psixologik tahlili berilgan. Tasviriy faoliyatda idrokning xususiyatlarini o`rganish jarayonida V.I.Kirnenko tasviriy san`atda qobiliyat hodisalarini yaxlit va sintetik ko`rinishida idrok etishda namoyon bo`lib, u badiiy talantning asosiy mazmuni haqidagi xulosaga keladi.

Tashkilotchilik qobiliyatlarni uzoq vaqt L.I.Umanskiy o`rgangan. Muallif tashkilotchilik qobiliyatlarining tizimini yaratadi. Uning fikricha, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo`lgan kishilar quyidagi xususiyatlarga ega bo`lishi kerak:

a) shaxsning yo`nalganligi;

b) uning tayyorgarligi;

b) umumiy xususiyatlar (kirishimlilik, rivojlanishning umumiy darajasi, amaliy aql, kuzatuvchanlik, faollik, tashabbuskorlik, qat`iylilik, tashkilotchilik, o`z-o`zini boshqara olishi);

g) maxsus xususiyatlar (tashkilotchilik, psixologik kashfiyotchilik, psixologik takt: emotsional – irodaviy ta`sir etish, talabchanlik, tanqidiylik, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik);

d) shaxsiy individual xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar va ularning tuzilishi. Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib beradi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlar (tarkibiy qisimlar)ni ajratib ko'rsatish mumkin:

Shaxs qobiliyatining mayllar va qiziqishlar bilan bog'liqligi, qobiliyat va bilim, malaka mahoratining o'zaro aloqadorligi, o'quvchilar qobiliyatini diagnostika qilish, qobiliyatni tarkib toptirishga individual yondashish masalalari, qobiliyatlarning tarkib topib borishi va rivojlantirishning shart-sharoitlari, o'quvchi qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari.

Pedagogik–psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o'zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo`lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko`p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o`qituvchining o`zaro fikr almashuvi bilan bog`liq xususiyatlari asosiy rol o`ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning asosiy xususiyatlari o`qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

Kommunikativ qobiliyat: o`qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo`ladigan o`zaro muloqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo`lish, muloqotga kirishishida pok ko`ngillilik. O`qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo`lishi, muomala madaniyatini muntazam o`zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya`ni kuzatuvchanlik muhim rol o`ynaydi. O`qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O`qituvchi o`qituvchining psixologiyasini, psixik holatini o`ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo`lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o`qituvchilarning his-tuyg`usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta`lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o`qituvchi o`z bilimini o`qituvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta`lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o`qituvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta`lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o`zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o`qituvchilarining o`qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to`garaklarga jalb

qila olishida, sinf jamoasining har bir o`quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo`ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o`qituvchining o`quv–tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko`ra olishi.

Bilish qobiliyati: o`qituvchining o`z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o`zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o`qituvchining ziyakligi va uddaburonligi, voqea va hodisalarni chuqur idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo`lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning tayanch xususiyatlari kuzatuvchanlik – ko`ra bilish ko`nikmasidir. Bu – individual narsaning o`ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang`ich materialni ko`ra bilishi demakdir.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyatlar va xislatlar quyidagilardan iborat:

- aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;

- o`qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so`z boyligining teranligi;

- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish;

- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo`lish.

Pedagogik qobiliyat tarkibi quyidagicha:

1. Didaktik qobiliyat (murakkab bilimlarni tinglovchilarga tushuntirishga uquvchanligi).

2. Akademik qobiliyat (barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo`lishligi)

3. Perseptiv qobiliyat (qisqa daqiqalarda auditoriya holatini idrok qila olish fazilati).

4. Nutqiy qobiliyat (ixcham, ma`noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo`lgan nutq, nutqning jarangdorligi, uning pauza mantiqiy urg`uga rioya qilishi).

5. Tashkilotchilik qobiliyati (sinf, guruh yoki kursni uyushtirish va uni boshqarish iste`dodi).

6. Obro`-nufuzga ega bo`lishlik qobiliyati. (o`zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aqlliligi, faxm-farosatliligi, mustaqil irodasi bilan obro` orttirishga uquvchanligi).

7. Muomala va muloqot o`rnata olish qobiliyati.

8. Psixologik tashxis (diagnoz) qilish qobiliyati (insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati).

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati (bir necha ob`ektlarga bir davrning o`zida o`z munosabatini bildirishga uquvchanligi).

10. Iymon-e`tiqodga, faol, hayotiy pozitsiyaga yo`naltirish qobiliyati.

11. Tashabbusga, ijodga ilhomlantirish qobiliyati.

12. Aqli donishlik qobiliyati (bilimdonlik).

13. Konstruktiv qobiliyat (o`quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati).

14. Gnostik qobiliyat (tadqiqotga layoqatlilik).

Didaktik qobiliyatlar-bu bolalarga o`quv materialini aniq va ravshan tushuntirib oson qilib etkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg`otib, ularda mustaqil faol fikirlashni uyg`ota oladigan qobiliyatlaridir.

Didaktik qobiliyatga ega bo`lgan o`qituvchi zarurat tug`ilganda qiyin o`quv materialini osonroq, murakkabrog`ini soddaroq, tushunish qiyin bo`lganini tushunarliroq qilib o`quvchilarga moslashtirib bora oladi. O`qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o`quvchilar odatda: “O`qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq-ravshan va tushunarli qilib berishidadir. Bunday o`qituvchining qo`lida mazza qilib o`qiging keladi”; “Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o`qituvchi, hech ham aniq tushuntirib bera olmas edi”; “O`quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq-mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o`qituvchilarni yoqtirmaymiz”, - deyдилar.

Akademik qobiliyatlar-matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o`qituvchi o`z fanini kurs hajmidagini emas, balki atroflicha keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o`quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi, hamda ozgina bo`lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko`pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o`qituvchi o`z fani bo`yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o`quvchilarda katta qiziqish uyg`ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng eruditsiyali (bilimdon) odam bo`lmog`i lozim.

Perseptiv qobiliyatlar - bu o`quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o`quvchi shaxsning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog`liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o`quvchi bolalarning har qanday mayda-chuyda xatti-harakatlarida, yorqin ifodalanadigan ayrim tashqi holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o`zgarishlarni sezdirmasdan ilib oladi. Ana shunday hollarda o`quvchilar: “Muhabbat opa kimningdir kayfiyatida o`zgarishlar bo`lsa yoki kimdir dars tayyorlamasdan kelgan bo`lsa ko`ziga qaraboq bilib oladi”, “Bizning o`qituvchimiz hech qayoqqa qaramasa ham, hamma narsani ko`rib turadi” deydilar.

Nutq qobiliyati-kishining o`z tuyg`u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o`qituvchilik kasbidagi muhim qobiliyatlardandir. Chunki o`qituvchidan o`quvchilarga uzatiladigan axborot asosan ikkinchi signal tizimi-nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi. (“Biz uchun adabiyot o`qituvchimiz-Nazira opaning darsini eshitishdan katta lazzat yo`q. Nazira opamlar shu qadar yaxshi va chiroylik qilib gapiradilarki, hatto tanaffusga chalingan qo`ng`iroq ham halaqit beradi”).

Tashkilotchilik qobiliyati - bu birinchidan, o`quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunday jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o`zining shaxsiy ishini to`g`ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

O`quvchilar o`z o`qituvchilari haqida turlicha fikrda bo`ladilar. Jumladan, ayrim o`quvchilar: "... Biz Azim akani juda yaxshi ko`ramiz. Ular sinfimizda bir pastning ichida, juda tezlik bilan ishchanlik kayfiyatini uyushtirib, barchamizni o`zining puxtaligi, ozodaligi, epchilligi va tadbirkorligi bilan hayratda qoldiradilar" desalar, ayrim o`quvchilar: "Sobir akamlar bizning ixlosimizni qaytarib, hafsalamizni bir pul qiladilar. Ular ko`p ishga urinadilaru, ammo birortasini ham oxiriga etkazmaydi..." deydilar. Ba`zan ayrim o`quvchilarning o`z o`qituvchisi haqida: "... Nodira opamlar biz bilan xuddi ona tovuqdek ovora bo`ladilar. Agar biz sho`xlik qila boshlasak, ular o`zlarini ko`rmaslikka, payqamaslikka solardilar. Ajoyib ayol edi-yu, ammo uning darsida hech kim hech narsa qilmas edi-da..." degan fikrlarini ham eshitish mumkin.

Obro`-nufuzga ega bo`lishlik qobiliyati- bu o`quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta`sir etib, ularda obro` orttira bilishdan iborat qobiliyatidir. (Garchan, obro` mana shu asnodagina qozonilmaydi, albatta, balki o`qituvchining o`z fanini mukammal bilishi, sezgirligi va xushmuomalaligi asosida qozoniladi).

Avtoritar qobiliyat o`qituvchining rostgo`yiligi, irodaviy uddaburonligi, o`zini tuta bilishi, farosatlilik, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy xislarga, shu bilan birga o`quvchilarning ta`lim-tarbiyasida javobgarlikni his etishi, uning e`tiqodi, o`quvchilarga ma`naviy va ma`rifiy e`tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlariga ham bog`liqdir.

O`quvchilar (ayniqsa o`g`il bolalar, o`spirinlar, buni alohida ta`kidlab o`tish kerak) talab qilishni biladigan, o`quvchilarni majbur qilmagan va do`q-po`pisa qilmagan, shu bilan birga behuda rasmiyatchilikka yo`l qo`ymagan holda o`z aytganini qildiradigan o`qituvchilarni juda hurmat qiladilar.

Muomala va muloqot o`rnatish qobiliyati-bu bolalar bilan muloqotda bo`lishga, o`quvchilarga yondashish uchun to`g`ri yo`l topa bilishga, o`quvchilarga yondashish uchun to`g`ri yo`l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o`zaro aloqa bog`lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Pedagogik takt psixologiyasini o`rganishda psixolog I.V.Straxov benihoyat katta hissa qo`shgan. Uning bunda muhimi-o`quvchilarga ta`sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta`sirni qo`llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e`tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o`quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarning hisobga olish zarurdir.

Pedagogik xayol -bu kishining o`quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o`z ish-harakatlarining natijasini oldindan ko`ra bilishida namoyon bo`ladigan maxsus qobiliyatidir. Bu qobiliyat o`qituvchi ma`lum o`quvchidan kelgusida kim chiqishni ko`z oldiga keltirishida, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi xislatlarning o`sib rivojlanishini oldindan ko`ra bilishida namoyon bo`ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o`quvchiga bo`lgan ishonch bilan bog`liqdir. Shuning uchun ham o`quvchilar ayrim o`qituvchilar to`g`risida “Ahmad akamlar, chamasi, ichimizdagi eng yaramaslarga ham ishonchlarini yo`qotmasdilar, shuning uchun ham biz ularni hurmat qilardik” degan fikrlarni izhor qiladilar.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati-bu qobiliyat bir vaqtning o`zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo`lib, o`qituvchi ishida g`oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o`qituvchi o`zining diqqat-e`tiborini o`quv materialining qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o`z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishga yoki o`quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan bir vaqtning o`zida barcha o`quvchilarni kuzatib, ularning toliqqan-toliqmaganligiga, e`tiborli yoki e`tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga e`tibor berib, o`quvchilarning intizomini kuzatadi hamda, oqibat natijada o`zining shaxsiy hulq-atvoriga (yurish-turishiga, o`zini tutishiga, mimika va pontamimikasiga) e`tibor beradi. Tajribasiz o`qituvchi, ko`pincha o`quv materialini bayon etishga berilib ketib, o`quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo`yadi. Agar, bordiyu, o`quvchilarni diqqat-e`tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o`z bayonatining izchilligini yo`qotib qo`yadi.

O'qituvchi irodasi, sabr – tokati, uning o'z – o'zini idora qilishi hamda bashqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati. Odam obyektiv dunyoni bilibgina qolmasdan, balki unga aktiv sur`atda ta'sir ham ko'rsatadi. Odam o'z maqsadi yo`lida harakat kilib, har xil tusiklarga uchraydi. Bu to`siqlarning bir xili hayot va mehnat sharoitiga, boshqa biri esa kishining shaxsiy kamchiligiga bog`liqdir.

To'siqlarni yengish kishiga bilishning yangi ufqlarini ochib beradi, shu bilan birga, uning sharoitlarini va o'z – o'zini idora qila bilish kuchini qaror toptiradi.

Iroda odamning o'z xatti – harakatini ongli sur`atda tartibga solishidir. Bu esa ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda uchragan to'siqni bartaraf qilishda ifodalanadi.

Kuchli iroda egasi bo'lishning bir necha yo'llari mavjud:

1. Boshlangan ishni oxirigacha yetkazish;
2. Uchragan qiyinchiliklarni nolimay, maqtanmay yengish;
3. Hatto bir necha marta buzib qilish kerak bo'lsa ham boshlangan ishni oxirigacha yetkazish;
4. Bugun qilish kerak bo'lgan ishni ertaga qoldirmaslik;
5. Qiziqqan narsalarga birdaniga kuch sarflamasdan, oldinma ketin bajarish;
6. Iroda hosil qilish uchun havasni keltiruvchi narsa va harakatdan o'zini tiyish, keraksiz harakatlarni bajarishdan ko'ra muhim.

Irodani tarbiyalashda jamoada yaxshi tashkil etilib, muntazam o'tkaziladigan ishlar o'quvchilarning umumiy saviyasiga hamisha ijobiy ta'sir etadi.

Qobiliyat va zehn. O'qituvchining o'z qobiliyatini rivojlantirib borishi. Zehn qobiliyatlarni rivojlantirishda muxim ahamiyatga ega. Masalan, nafas yo'llarining, tovush naychalari va tomoq ustki qismining tuzilishi o'quvchida vokal qobiliyatlarning, diktor, lektor bo'lish qobiliyatlarining rivojlanishi uchun zehn kurtak bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, har qanday zehn turlicha ahamiyat kasb etadi. Masalan, pedagog murakkab sharoitni tezda o'rganib olishi, to'g'ri javob yoki xatti – harakatni o'z vaqtida topa bilishi, o'z diqqatini bir obyektidan ikkinchi obyektga ko'chira olishi mumkin.

Qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zehning mavjudligi muhimdir. Zehn qobiliyatlar rivojlanishining shartlaridan biridir. Biror kishi muayyan faoliyatga nisbatan ajoyib zehni bo'lishi mumkin, agarda sharoit bo'lmasa, mana shu zehn asosida qobiliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin. Mana Mustaqil Respublikamiz o'z huquqini qo'lga olgandan so'ng turli kasb egalari turli – tuman yangi – yangi ixtirolar qilmoqdalar, qobiliyatli bolalarimiz chet ellarda faoliyatlarini (musiqa, sport, olimpiada o'yinlari va boshqalar) namoyish etib kelmoqdalar.

Zehning rivojlanish sharti -- bu avvalo, faoliyat, avvalo, pedagog – tarbiyachi tomonidan bajariladigan, so'ngra tobora mustahkamlanib boradigan, chuqur ijodiy faoliyatdir. Kishi o'z zehni mustahkamlash uchun juda ko'p mehnat qilishi kerak bo'ladi.

Demak, hayot yo'lini aniqlab olish, iroda va xarakterni, o'z – o'zini tarbiyalab borish qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy faktorlaridan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi xislatlarni olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Jumladan, o'qituvchining tashqi qiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, saranjom-sarishtaligi, uning qiliqlari, o'zini chiroylik tutishi, qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi. Jumladan, o'quvchilarning “Farida opani nechuk yaxshi ko'rmaysan, ular har doim shu qadar xushchaqchaq, ozoda, sarishta-saranjomlar-ku!?” yoki “Noila opa maktabda emas, balki teatrda ishlab, tomosha ko'rsatishi kerak, chunki ularning turqi-qiyofasi, yurish-turishi yasama, soxta” degan fikrlarini olishimiz mumkin.

1.2. Pedagogik qobiliyat uning turlari va mohiyati

Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional-irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri-biri bilan o`zaro bog`langan bo`lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta'rif beriladi: qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko`nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda nomoyon bo`ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Pedagogik psixologiyada o`qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o`rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borildi.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o`tganidek, pedagogik jarayon o`qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o`quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog`liq. Bola shaxsining rivojlanishida o`qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi.

Yirik o`zbek olimi S.R.Rajabov va uning yuzlab shogirdlarining ishlari ham o`qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatiga qaratilgandir.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o`qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

Didaktik qobiliyat – bu oson yo`l bilan murakkab bilimlarni o`quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o`qituvchining o`quv materialini o`quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o`quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg`ota olishi ko`zda tutiladi.

Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo`lishlik. Bunday qobiliyalarga ega bo`lgan o`qituvchi o`z fanini o`quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o`z fani sohasidagi

yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosat hayotga doir qiziqishlari bilan ko`p narsalarni o`rganib boradi.

Perseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o`quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o`quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o`quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog`liq bo`lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o`qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo`lmagan tashqi belgilar asosida o`quvchi ruhiyatidagi ko`z ilg`amas o`zgarishlarni ham fahmlab oladi.

Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo`lgan nutq; shuningdek, o`qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg`uga rioya qilishi, qobiliyatli o`qituvchining nutqi darsda hamisha o`quvchilarga qaratilgan bo`ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – sinf-guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o`quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o`quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo`lsa, ikkinchidan, o`z shaxsiy ishini to`g`ri uyushtirish qobiliyatidir.

Obro`ga ega bo`lishlik qobiliyati – o`zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro` orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi-avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi.

Qaysi o`qituvchi hurmatga sazovor?

1.O`qituvchimizning zo`rlamasdan va baqirmasdan talab qila olishdek ajoyib xislati bor.

2. Biz uni qattiqqo`l va talabchan bo`lganligi uchun juda yaxshi ko`ramiz, u hamisha osoyishtalik va muloyimlik bilan talab qiladi, biroq, shunday ta'sir etadiki, unga quloq solmay ilojing yo`q.

3. Kimyo o`qituvchimiz hamisha xotirjam o`zini tutgan odam va shu xislati bilan butun sinfga qattiq ta'sir ko`rsatadi.

4. Biologiya o`qituvchisining obro`yini saqlamay ko`r-chi. Har qanday sharoitda ham u o`z obro`sining saqlanishiga erishadi.

1. O`zi yaxshi odam-u, lekin juda yumshoq-da, uni aldash hech gap emas.
2. Uning qanday odam ekanligini tushunib bo`lmaydi: bir qarasang qattiqqo`l, bir qarasang hech narsa talab qilmaydi.

3. Juda bo`shang: uni ko`rsang uyqung keladi.

4. Biz P.I ning ketganidan juda xursandmiz. U bizni baqirib-chaqirib, buyruq berishlar bilan qo`lga olmoqchi edi, ammo unga majburan chidayotganimizni bilmasdi

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o`rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o`quvchilarga to`g`ri yondoshish yo`lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o`zaro munosabatlar o`rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati – Insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog`liq bo`ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obyektlarga bir davrning o`zida o`z munosabatini bildirish. O`quvchi, o`qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari-hajmi, uning kuchi, ko`chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo`lishi muhimdir.

O`qituvchining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlaiga bog`liq bo`ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhleri farqlanadi:

- obyektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik — insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, xushmuomalalik;
- perseptiv qobiliyatlar — kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg`u;
- shaxs dinamikasi — irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik - o`zini boshqara olish;
- kreativlik — ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko`nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O`qitish, o`rganish va o`rgatish bo`yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- talabani tushunishini ko`rish va sezish hamda bunday tushunishning darajasini va xarakterini o`rnatish qobiliyati;
- o`quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o`qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- materialni etarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga tushunarligini ta'minlash qobiliyati;
- talabalarning individualligini hisobga olgan holda o`qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o`qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o`zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o`zining tajribasini boshqalar bilan baham ko`rish qobiliyati;
- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- boshqa insonning ichki holatini to`gri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo`la olish qobiliyati (empatiya qobiliyati);
- taqlid qilish uchun namuna bo`lish qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqotning lozim topilgan uslubini hamda o`z o`rnini topish, kelisha olish qobiliyati;
- hurmat qozonish, ya'ni talabalar o`rtasida obro`ga ega bo`lish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo`lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.

Kommunikativ qobiliyat — bu pedagogik o`zaro aloqalar doirasidagi o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladigan muloqot qobiliyatidir.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlari farqlanadi:

1. Kishining boshqa kishini bilishi. Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning alohida qiyofasi, motivi va xatti-harakatlariga baho berish, kishining tashqi ko`rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berish; savlati, imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o`qiy» olish kabilar qamrab olinadi.

2. Kishining o`z-o`zini bilishi. U o`z bilimlarini, qobiliyatlarini o`z xarakteri va o`z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baho berishi lozim bo`lsa, shunday baho berishni ko`zda tutadi.

3. Muloqot vaziyatini to`g`ri baholay olish. Bu vaziyatni kuzatish, uning ko`proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to`g`ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Konstruktiv qobiliyat – o`quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o`quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o`quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o`quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo`lib, o`z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o`rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Shuningdek, zamonaviy o`qituvchi o`zida aqli donishlik qobiliyati, iymon-e`tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo`naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlarni bo`lishi zarurligi ko`zda tutilmoqda.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o`rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg`usi va iroda sifatlarining namoyon bo`lishidan iborat ekanligini ko`rsatdi.

Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog`langan. Ular o`qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o`qituvchilar o`z o`quvchilarini (talabalarni) ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta'lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog`langan. Uyushqoqlik, qat'iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasining ortishiga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko`ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog`liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan o`ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o`z to`g`ri munosabatini bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat ko`rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo`lmog`i lozim. O`quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so`zsiz o`qituvchiga, uning o`quv-tarbiya jarayonini to`g`ri boshqara olishiga va o`quvchilar bilan o`rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog`liqdir.

Kommunikatsiya – lotincha, communicatio- umumlashtiraman, bog`layman, degan ma'noni anglatadi. Kommunikatsiya-guruh yoki jamoa ichidagi alohida shaxslar o`rtasida axborot almashish jarayonini o`z ichiga oladi. Bunday jarayon asosan-muloqot yordamida amalga oshiriladi.

Muloqot- axborot jarayoni bo`lib, axborot ikki yo`nalishda boshqarish sub'ektidan (pedagog) boshqarish obyektiga (o`quvchiga) boradi va aksincha obyektidan sub'ektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muloqotdan o`z tarbiyalanuvchilari, umuman jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida ko`pgina xilma-xil axborotlarga ega bo`ladi. O`z navbatida pedagog muloqot jarayonida o`z o`quvchilariga ham masadga qaratilgan axborotni ma'lum qiladi.

Muloqot – pedagog faoliyatining eng muhim professional qurolidir. Pedagogik muloqot-qulay psixologik muhit yaratish masadida o`qituvchining o`quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy muloqotidir.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o`qituvchi bilan o`quvchilar jamoasi o`rtasidagi sermahsul muloqot jarayonini tashkil etmasdan turib yetarli darajada unumli tarzda amalga oshirib bo`lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida muloqot,

- birinchidan, xususan o`quv vazifalarini hal etish vositasi sifatida,

- ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-psixologik jihatdan ta'minlovchi tizim sifatida,

- uchinchidan, o`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasida ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borilishiga imkon beradigan o`zaro munosabatlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida,

- to`rtinchidan, buningsiz maktab o`quvchisining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo`lmaydigan jarayon sifatida maydonga chiqadi.

Pedagogik muloqot, deganda pedagog va o`quvchilar jamoasi o`rtasida o`zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o`quv-tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish va o`zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ubu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

Noto`g`ri pedagogik muloqot o`quvchilarda qo`rqo`v, ishonchsizlik tug`diradi, diqqati, xotirasi va qobiliyatini susaytiradi, nutq jarayonini buzadi. Natijada, o`quvchilarda stereotip fikrlar vujudga keladi. Ularni o`qishga va mustaqil o`rganishga, fikrlashga bo`lgan qiziqishlari pasayadi. Oqibatda, o`quvchilarda o`qituvchiga nisbatan muayyan salbiy munosabatlar uzoq saqlanib qoladi.

Pedagogik muloqot – ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funktsiyalar bilan xarakterlanadi: shaxsni o`rganish (bilish), axborot almashish va faoliyatini tashkil etish.

Muloqotning axborot almashish funksiyasi ma'naviy boylik va yangiliklar bilan o`rtoqlashishi jarayonini rivojlantirish uchun ijobiy ishtiyoqlar, hamkorlikda va fikrlash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Rollar almashinishi yordamida muloqot o`rnatish esa ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan hatti-harakatni dasturlaydi. O`qituvchilar o`quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar: darsning ayrim elementlarini bajarishga o`quvchilarni taklif qiladilar. Bunda o`quvchilar tomonidan o`z shaxsi (men) ni, o`z qadr-qimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta bilish uchun intilishlarini ta'minlash imkoniyati tug`iladi.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri hamdard bo`lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunishi, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirishi jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda o`quvchiga uning istaklarini tushunish va bular asosida o`quvchiga ta'sir etish zarurligini anglash o`qituvchi uchun juda muhimdir.

Dasrga tayyorgarlik ko`rilayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishni rejalashtirish zarur. Bunda eng muhimi o`quvchilarning o`z shaxsini namoyon qilishlarini va o`z qobiliyatlarini ko`rsata olishlariga erishish mumkin.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarni o`rganish pedagogik ta'sir etish ikki usuldan-ishontirish va uqtirishdan iborat ekanligini ko`rsatadi.

Ishontirish-o`quvchilarga xatti-harakatlarning to`g`riligi va zururligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto`g`riligini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o`quvchilarga yangi bilim, ko`nikma va malaka hamda ahloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa, o`quvchilar va ularning airofidagilar uchun me'yor(mezon) bo`lib hisoblanadi.

O`qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko`rsatishi, oqibat natijada o`quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko`rsatishga, ya'ni o`quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo`nalgan bo`ladi.

Lekin ishontirish va uqtirishni texnologik mexnizmlari turlichadir. O`qituvchining o`quvchiga so`z bilan ta'sir ko`rsatishning har bir usuli o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, quyida biz ularga alohida to`xtalib o`tamiz.

Ishontirish haqiqiy va soxta bo`lishi mumkin. Haqiqiy ishonch haqiqiy voqelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi. O`zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo`lishi uchun kishi hatto o`limiga ham rozi bo`ladi. Masalan, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalangan askarlarimizning jang maydonida ko`rsatgan matonatlari.

Soxta ishonch esa, avvalo sinf jamoasi, qolaversa jamiyat uchun zararli bo`lgan odatlarning shakllanishiga olib boradi. Soxta ishonch o`quvchilarning o`zi va atrofdagilar ta'sirining umumlashuvi natijasida vujudga keladi.

Ayrim o`quvchilarda soxta ishonch hosil bo`lishining sabablari quyidagilar bo`lishi mumkin:

*faqat a'lo bahoga o`qish-bu bilim olishda ko`r-ko`ronalik, quruq yodlashga olib boradi;

*o`zini o`ta itoatkorona tutish-bu o`quvchi faoliyatini nihoyatda past bo`lishiga olib keladi. Me'yordagi o`quvchi o`qituvchidan ba'zan tanbeh olib turishi kerak;

*o`qituvchini aldash-bu o`quvchini o`ta aqlli va topqirligidan dalolat beradi;

*maktab ichki tartib-qoidasini buzish faqat kuchli xarakterga ega bo`lgan o`quvchigagina xos bo`lib, u o`qituvchi tomonidan tanqil qilib turiladi;

*haddan tashqari ko`p mehnat qilish- bu kerak bo`lmagan tirishqoqlikdir.

Yuqoridagi bunday ishonchlar o`quvchida shakllanib asta-sekin boqimandalik, o`qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini sodir qiladi.

Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun o`qituvchi quyidagi uch yo`nalishda ish olib borishi kerak:

1. Sinf jamoasida sog`lom ijtimoiy fikrni shakllantirish.
2. Muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy hayotiy tajriba yaratish.
3. Soxta ishonchni asosiy tarzda inkor qilish.

Soxta ishonchlarni o`zgartirishning quyidagi usullari mavjud:

*o`quvchini o`zini boshqalar bilan taqqoslashiga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo`lgan kishi bilan yaqindan tanishish. (Masalan, bola o`qishni hoxlamaydi, lekin uning tanish o`rtog`i ko`p o`qiydi va biladi, ammo o`zining «quruq yodlovchi» yoki «o`ta bilimdon» qilib ko`rsatmaydi);

*noto`g`ri qarashlar va ishonch oqibatida nimalarga olib borishni ko`rsatish. (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo`lib, o`z hayotini barbod qilgan, o`z erki, g`ururi va vijdonini yo`qotgan kishilar haqida so`zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin);

*soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o`quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha o`quvchilar o`qituvchilarni aldash, ichki tartib qoidalariga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin);

*ishontirishning biron tashkil etuvchisiga amal qilmaslik ham tarbiyaviy ish samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday holatda o`quvchida faqat bilish shakllangan xolos. Inson o`zini qanday tutishi lozimligini bilishi, aynan shunday tutishi lozimligini tushunishi, lekin o`zini bunga majbur qilolmasligi mumkin.

Ishontirish bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me'yorlari tizimi bo`lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto`g`ri qarashlar, munosabatlar o`zgaradi.

Munozara, tortishuv, suhbat, o`qituvchi hikoyasi va uning shaxsiy namunasi, ishontirish shakllari bo`lib hisoblanadi. Ishontirish o`quvchilarga ta'sir etish metodi sifatida yuqori samara berishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

*ishontirishning shakli va mazmuni, o`quvchilar yosh davriga mos bo`lishilozim. (Kichik maktab yoshida ertak, rivoyat va fantastik hikoyalar misolida, so`ngra esa borliq dunyoni o`rganish inson ma'naviy dunyosini o`rganish);

*ishontirish o`quvchilarning individual xususiyatlariga mos bo`lishi lozim. Buning uchun o`quvchining haqiqiy hayot tarzini o`rganish zarur;

*ishontirish umumiy tarzdagi qoida va printsiplardan tashqari aniq dalil va misollarni ham o`z ichiga olish zarur. (O`qitishdan ko`rgazmalilikka e'tibor berish);

*ishontirish jarayonida ba'zi xollarda barcha bir xil xabardor bo`lgan dalil va xulq-atvorni muhokama qilishga to`g`ri keladi. Bu o`z navbatida dalilning haqqoniyligi tg`risidagi ikkilanishlarni yo`qqa chiqarishga va umumiy to`g`ri xulosa chiqarishga yordam beradi;

*boshqalarni ishontirar ekan, o`qituvchi o`z fikriga qat'iy ishonishi zarur.

*ishontirish jarayonini tashkil etishda o`quvchining ruhiy qiyofasini o`ziga xosligini e'tiborga olish lozim. Buning uchun pedagog o`quvchi oliy asab tizimining tipini, uning ta'lim-tarbiya va kamolotining rivojlanish doirasini bilishi zarur.

Fikr, sezgi va irodaviy xislatlar bir butun yaxlitlikni tashkil etgandagina, ishontirish metodi haqiqiy harakatlantiruchi kuchga aylanishi mumkin. Bu metodni qo'llashda ishontirish tarkibi bilish, sezgi, hissiyot-xulq-atvorga amal qilish maqsadga muvofiq.

Ishontirish natijasi o'qituvchining so'z mulkiga ham bog'liqdir. Pedagogning so'zi va ishi ham bir bo'lishi kerak.

Ishontirish metodini qayta tarbiyalash, ya'ni qarash va munosabatlarni shakllantirishda qo'llash, u yoki bu xislatlarni namoyish qilish zarur bo'lgan maxsus vaziyatlar yaratish orqali amalga oshirilishi ham mumkin.

Tasodifiy vaziyatlar quyidagi yo'llar bilan yaratiladi: darsda o'quvchiga kutilmagan savol berish, darsdan tashqaridagi noto'g'ri hatti-harakatiga iqror bo'lishiga majbur qilish, o'yinda esa harakat qilishga undash. (Masalan: g'ira-shira o'rmonda razvedkaga borish).

Maktab hayotida tasdiqlanganidek, ba'zan o'quvchi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit bo'lmagani uchun ham tarbiyasi og'irlar qatoriga qo'shilib qolar ekanlar. Undan darsda onda-sonda so'rashadi: o'qituvchi uning bilimiga ishonmaydi, dars paytida unga e'tibor berishga vaqtdan qizg'anadi. Agar o'quvchiga tez-tez murojaat qilinsa, unga o'z fikrini bayon qilish, taklif etilsa, uning xulqida shakllanib qolgan stereotiplar asta-sekin o'zgarib boshlaydi.

Demak, xulosa qilish mumkinki, ishontirish:

1. Bu biror fikr yoki xulosani mantiqiy asoslashdir. ishontirish suhbatdosh yoki guruh ongini o'zgartirib, ma'lum fikr (nuqtai nazar)ni qo'llab-quvvatlaydigan va uning asosida faoliyat ko'rsatishni nazarda tutadi;

2. Uqtirish-kishilarning muloqot faoliyati jarayonida o'zaro ta'sir etishlari vositalaridan biridir. uqtirishning o'ziga xosligi, inson ruhiyatiga uning o'ziga sezdirmasdan ta'sir etishi, shaxs psixikasi, tarkibiy tuzilishiga beixtiyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar, motivlar va yo'l- yo'riqlarda aks etishidir;

3. Har qanday pedagogik ta'sir etishda uqtirish elementi mavjud bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan uqtirish o'quvchilarning ongli ravishdagi faolligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

4. Soʻz yordamida oʻquvchida tetiklik yoki qoʻrquv, xursandlik yoki xafalik, oʻziga ishonch va ishonmaslik, qiziquvchanlik yoki zerikish, boshqalarga ishonish yoki ulardan hadiksirash kabi sezgilarni vujudga keltiramiz. Oʻqituvchining yomon kayfiyati toʻlqin kabi bir zumga oʻquvchilarni qamrab olishini ham faqat uqtirish bilangina tushunish mumkin.

Uqtirishni turkumlarga ajratish uchun quyidagilar asos qilib olinadi.

Uqtirib taʼsir etish manbalari boʻyicha:

a) boshqa kishi tomonidan uqtirish;

b) oʻz-oʻzini uqtirish-bunday uqtirish obyekti va sub'ekti bir-biri bilan ustma-ust tushadi.

Uqtirish obyektining holati boʻyicha:

a) uygʻoq holatda uqtirish

b) tabiiy uyqu holatda uqtirish

b) gipnoz holatda uqtirish

Zamonaviy didaktikada gipnoz holatda uqtirish va tabiiy uyqu holatda uqtirish (tush koʻrayotganda chet tilini oʻrganish-gipnopediya) ham qoʻllanilishidan qatʼiy nazar, biz pedagogik munosabatlar istiqbolini belgilovchi uygʻoq holatda uqtirishni oʻrganamiz.

Oʻqituvchining maqsadi boʻyicha:

a) oldin moʻljallangan uqtirish;

b) oldindan moʻljallanmagan uqtirish.

Oldindan moʻljallangan uqtirishda oʻqituvchi oʻz maqsadiga erishish uchun oʻquvchiga ongli va izchillik bilan ruhiy taʼsir koʻrsatib boradi. Masalan: K ismli oʻquvchi nihoyatda uyatchan, oʻz imkoniyatlarini juda past baholaydi. Oʻqituvchi darslarning birida shunday dedi: Men sizlarni yozgan insholaringizni tekshirganimda K ning inshosi juda yoqdi. Qani oʻrningdan tur, raxmat senga, yozganingni baland ovoz bilan aytib bera olasan, men senga ishonman. Yoki oʻqituvchi oʻzi odatlanib qolgan soʻzlar bilan oʻquvchilarga murojaat qilishi juda katta uqtiruvchi kuchga ega ekanligini koʻp hollarda anglamaydi.

O`qituvchi: «Sen doim qaysarlik qilasan, bema'ni gaplarni gapirasan, seni tuzatib bo`lmasligi shundoq ko`rinib turibdi, bu ishni uddalay olmaysan», -kabi iboralar bilan o`quvchiga muomala qilar ekan, u o`zi anglamagan (oldindan mo`ljallanmagan) holda o`quvchida o`ziga ishonmaslik xislatlarini mustahkamlab, o`z nuqsonlarini tuzalmasligini uqtirib borayotganligini sezmaydi.

Bir yosh o`qituvchi o`quvchilar imtihonga puxta tayyorgarlik ko`rishi uchun: «Imtihon kim nimaga layoqatli ekanligini ko`rsatib qo`yadi. Sizlarni kamchiliklaringiz imtihonda hammaga oshkor bo`ladi», -deb yil davomida ko`p marta takrorlab bordi. Natijada ko`pchilik o`quvchilar o`z imkoniyatlaridan past baho oldilar. O`qituvchi yil davomida o`quvchilarni imtihondan qo`rqish, o`ziga ishonmaslik hislarini o`yg`otib kelganligini tushunmas edi.

Uqtirib ta'sir ko`rsatish uning oqibatiga qarab:

a) ijobiy;

b) salbiy ko`rinishlar bo`lishi mumkin.

5. Uqtirish mazmuniga qarab ikki turga bo`linadi:

a) ochiqdan-ochiq uqtirish, bunda uqtirish maqsadi uning shakliga mos keladi. Uqtiruvchi to`g`ridan-tog`ri va ochiq holda o`quvchini ba'zi xatti-harakatlarini bajarishiga yoki bundan o`zini to`xtatishga chaqiradi. «Sen bundan keyin doim darsni tayyorlab kelasan, senga ishonaman» (aniq shaxsga yo`naltirilgan fikr)

b) yopiq (vositali) uqtirish. Bunda ta'sir etish maqsadi «niqoblangan» bo`ladi. O`quvchi uqtiruvchini kuchga ega ekanligini ko`p hollarda anglamaydi.

II.BOB. O`QITUVCHI PEDAGOGIK QOBILIYATINI

TAKOMILLASHTIRISH SHART-SHAROITLARI

2.1.Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari

Ta'lim dasturining texnologiyasi o`z ichiga ta'lim maqsadlari, ularni amalga oshirish yo`llari, baholash mezonlari, ta'lim jarayonining texnologik yo`nalishda ko`rish mexanizmidan iborat. Bu holatda har bir maqsadni amalga oshirish uchun alohida qoida qonuniyat, jarayon ketma-ketlik va unga mos metodlar yig`indisining mavjud bo`lishi asos sifatida qabul qilinadi.

Pedagogika fanlari doktori, professor N.Saidaxmedovning “O`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi” nomli beshinchi maqolasida ta'kidlanishicha zamonaviy o`qituvchi bilimlarni uzatuvchi metodist sifatida emas, balki o`qituvchi – texnolog sifatida faoliyat ko`rsatishi kerak. Demak o`qituvchi faoliyati texnologiyalanishi uchun ta'limning uch didaktik maqsadi: o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirish qonuniyatlari o`qituvchi tomonidan maksimal o`zlashtirilgan bo`lmog`i, o`zida tarbiyalagan yoxud tarbiyalashga harakat qiladigan bo`lishi lozim. O`qituvchi faoliyatida texnologiya:

- samarador o`qish – bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo`qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko`ra intentsiv (jadal) mumkin qadar ilmiy asosida ko`rishdir;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o`qitish davomida to`siqlarni tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo`qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- ularning texnik fositalarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasini o`zlashtirish.

Pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi yosh avlodni ijtimoiy hayot, tabiat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlari bilan tanishtirish bilan birga ularni turmushga,

mehnatga tayyorlashdan iborat bu maqsadni amalga oshirish notexnologik yoxud texnologik amallar yordamida tadbiiq qilinadi.

Notexnologik jarayonga nisbatan, texnologik jarayon tez, aniq, ishonchli o`tadi. Uning nazariy asosini amaliyotda qo`llashning qay darajada mukammalligini aniqlash maqsadida jarayoni nazorat qilinadi va baholanadi. Buni texnika vositasida, mashg`ulotdan oldin tayyorlanganligini o`rganish, qo`llash va natijasini aniqlash va baholash texnik nazorat deyiladi.

Texnik nazoratning yana bir turini qayd qilish mumkin. Ijodkor o`qituvchilarning individual iqtidori va qobiliyatini aniqlash maqsadida har bir bola uchun tashkil qilingan va yuritiladigan ijodiy ish jurnallarida qayd qilinishi ham texnik nazoratga qo`shsa bo`ladi. Chunki bu nazoratdagi doimiy yozuvlar o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini qay darajada o`sganligini yoxud uning aksi to`g`risida ma'lumot berishga qodir. Har qanday ijodiylik, iqtidorlilik - bu pedagogik texnologiyadir.

Pedagogik texnologiyaning ayrim zvenolari sifatida qo`llaniladigan kompyuter mashinalari, dasturlashtirilgan mashinalar, turli xildagi radio-teleapparaturaning qanchalik ta'lim mahsuldorligiga yordam berganligini aniqlash, yaroqli, yaroqsizligini bilish texnik nazoratda N.Sayidaxmedov ta'biri bilan aytganda dopusk tushunchasini beradi. Olimning ta'kidlashicha "Didaktik jarayonda foydalanilayotgan har bir texnik vosita uchun dopusk maydoni - ishlatish chegarasi mavjud bo`ladi. Agar shu chegara buzilsa pedagogik texnologiya sifatiga putur etadi yoki ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi. Demak, o`qitishning texnik vositalarini yaroqli holga keltirish choralari ko`rilishi kerak.

Shuning uchun ham muallimlikka tayyorlaydigan oliy maktablarda bunga e'tibor qilinadi va shunday tayyorgarlik ko`riladi. Bu o`z navbatida o`qituvchi faoliyatini texnologiyalashuvchanligi uchun keng imkoniyat yaratadi va o`qituvchi faoliyati tavsifnomasida "Texnologiyalanuvchanlik" so`zini qo`yish imkonini beradi.

Shu o`rinda shuni e'tirof etish joizki, milliy mustaqillik davriga qadar ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo`llash o`qituvchi faoliyatini

texnologiyalashtirishga deyarli e'tibor qaratilmagan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, taniqli olimlardan biri "Bizning pedagogik ishlab chiqarish xech qachon texnologik mantiq bo'yicha qurilmagan, aksincha har doim axloqiy va'z (nasihat) mantiqiy bo'yicha ko'rilgan. Shu sababdan ta'limda ishlab chiqarishning barcha muhim bo'limlari shunchaki ishtiroksiz qolayapti. Ammo shu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, o'quv tarbiya ishlari texnologik mantiq emas, axloqiy va'z (nasihat) asosida qurilgan bo'lsada ma'lum darajada davlat byurtmasini bajargan edi.

N.Saidaxmedovning ta'kidlashicha pedagogik texnologiya mohiyati jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki u ham sheriklari qatori o'z xususiy sohasiga metodlari va vositalariga ega. Biroq u inson ongi tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonini ifoda etish bilan ishlab chiqarishdan biologik, tibbiyot, axborot texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganligidir.

Texnologiyaning samaradorligi inson o'zini ko'p qirrali tomonlari bilan qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik kasbiy jihatlari, ularni kelajakda rivojlantirish qanday hisobga olinyapti degan so'rovlarning yechimiga bog'liqdir. Shu jihatdan texnologiya shaxsni rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashhishlash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchining texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

O'qituvchining me'yoriy hujjatlarga ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida ta'lim-tarbiya vazifalarini bajarish holati ishlash qobiliyati deb atash mumkin. Binobarin u yoki bu fan o'qituvchining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi. N.Sayidaxmedovning ta'kidlashicha pedagogik nashrlarda o'qituvchi faoliyatini baholash uchun qator ko'rsatkichlar tavsiya etiladi, jumladan:

1. Pedagogik natijaviylik – o'qituvchi o'qitgan guruhda fan bo'yicha o'zlashtirishning o'rtacha qiymati;

2. O`qitishning ilmiylik darajasi – o`qituvchining o`quv elementlarini fan abstraksiyasi pog`onalari bo`yicha tushuntirish;

3. Ta'lim mazmunini metodik tayyorlash – umumiyliigi, izchilligi harakatdaligi ortiqcha emasligi kabi talablarni e'tiborga olinishi;

4. Ta'lim u yoki bu natijani qo`lga kiritish yo`llaridan samarali foydalanish va hokazo.

Umuman aytganda ijodkor o`qituvchi uchun asosiy kasbiy –me'yoriy ko`rsatkich birinchi navbatda o`z faoliyatini pedagogik jarayonida bunyodkor shaxs sifatida his etishi va anglab etishidir. Pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir kishi ko`rinishdagi kasblar tizimida tasavvur etishi kerak. Bu sifatni aniqlash yo`llari xilma xil. Misol sifatida quyidagi so`rovnomani keltiramiz:

1. Boshqalar sizni muloqotda xafa qilib qo`yadigan, ozor beradigan shaxs deb hisoblaydimi?

2. Sizning dilingizda muloqot jarayonidagi ehtirolardan hosil bo`lgan xafagarchilik yoki xursandchiliklar uzoq saqlanib qoladimi?

3. Kayfiyatingizda ko`tarilish yoki tushish hollari tez-tez bo`lib turadimi?

4. Tanqiddan og`ir va uzoq aziyat chekasizmi?

5. Sizni shovqin quvnoq guruh kuchli charchatadimi?

6. Yangi odamlar bilan tanishayotganingizda o`zingizda sezilarli darajada noqulaylik, uyalish holatlari kechadimi?

7. U yoki bu haqida odamlardan so`ragandan ko`ra kitoblardan bilib olishingiz engil va yoqimli?

8. Yolg`iz dam olishni, jimjitlikka bo`lishni tez-tez istab turasizmi?

9. Muloqot jarayonida kerakli so`zlarni uzoq qidirasizmi?

10. Siz keng davrada yangi tanishuvdan ko`ra doimiy tanish bo`lgan kichik guruhni xohlaysizmi?

Agar javoblar ko`pchilik savollarga “ha” tarzda bo`lsa, ochig`i pedagogik faoliyat oson kechmaydi. O`qituvchi kasbiy shaxsiy tarbiya ishlari sohasida ko`p mehnat qilishi kerak bo`ladi. Eng muhimi xususiy pedagogik faoliyat mohiyatini ahamiyatini va maqsadini tushunib etish, doimiy ravishda joriy o`qitish vazifalarini

istiqbollari bilan birga olib borishini uddalashi kerak. Shu qobiliyat o`qituvchida bo`lmasa u yaxshigina bajaruvchi bo`lishi mumkin lekin hech qachon ijodkorlik pog`onasiga ko`tarila olmaydi.

Pedagogik texnologiya esa doimo ta'lim maqsadini aniq o`rganishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo`lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi.

Xo`sh o`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasi qanday mezonlar bilan o`lchanadi? Bunday mezonlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko`rsatish mumkin:

- o`rnatilgan maqsadning tashxislanuvchanligi – o`quvchi tomonidan didaktik jarayon maxsuli sifatida o`zlashtirilgan aniq o`lchamli tushunchalar, atamalar, faoliyat turlari;

- ta'lim mazmuning o`quv unsurlari yordamida bayon qilishda abstraksiya pog`onalarning va axborotlarni o`zlashtirish darajasining hisobga olinishi;

- o`quv materiallarini o`zlashtirish bosqichlarining etarlicha mantiqiy qa'iyatligi didaktik jarayon strukturasi mosligi;

- o`quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish metodlarining joriy etilishi;

- o`qituvchining qoidabop va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo`lgan chetga chiqish chegarasining ko`rsatilishi;

- o`quvchi va o`qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy va kasbiy mohiyat va boshqalar);

- o`qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Agar o`z pedagogik faoliyatingizning ushbu mezonlariga ta'minlayotgan bo`lsangiz, siz loyiha muallifisiz. Endi metodist o`qituvchilikdan “pedagog texnolog” darajasiga ko`tarildingiz. Shunday yangi kasbiy faoliyat har biringizga nasib etsin.

Shunday qilib, o`qituvchi faoliyatining texnologiyalanishi ta'lim-tarbiya jarayoniga texnik vositalarni qo`llashdan xabardorligini anglatar ekan, bugunki kun

o`qituvchisi buni chuqur anglashi, pedagogik ishlab chiqarish jarayonida o`zini tayyorlab borishi lozim. Shundagina u davlatning maktab, o`qituvchi oldida qo`ygan buyurtmasi, barkamol shaxsni shakllantirish hamda “Ta’lim to`g`risida” gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” vazifalarini bajaradi. Bu har bir jonkuyar, fidokor, vatan, xalq uchun yonib yashaydigan o`qituvchi uchun muqaddas burch.

Mustaqil O`zbekistonimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilinishi, yangi ta’lim standartlari asosida ta’lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o`qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko`p jihatdan o`qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog`liqdir. Shunday ekan, sog`lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash ishiga bo`lgan munosabatiga bog`liqdir. O`qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig`ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o`qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Mustaqil O`zbekistonning kelajagi bo`lgan sog`lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o`qituvchi, o`quvchi va talabaning shakllanish jarayonini zo`r havas va sinchkovlik bilan kuzatish lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo`lishi lozim. Shundagina o`qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogik mahoratni egallay oladi.

Bilim va mahorat egasi bo`lgan o`qituvchi avval, fanining metodologik asoslariiii, qonuniyatlari va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi darkor. Ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko`pchiligi ta’lim va tarbiya jarayonida fanning zaruriyati va ahamiyatini chuqur anglamoqdalar.

Shu sababli ular o`z mahoratlarini uzluksiz oshira borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o`zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni kungildagidek o`qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bu g`oyat murakkab va ko`p qirrali vazifani faqat malakali bilimga ega bo`lgan o`qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shunday ekan, o`qituvchilik katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o`z-o`zidan erisha olmaydi. Buning uchun o`qituvchilik kasbiga, ya'ni sog`lom avlodning chinakam murabbiy bo`lishga havasi, ishtiyoqi zo`r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o`zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g`oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

O`qituvchilik kasbi tug`ma talant yoki nasldan-naslga o`tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko`p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Hamma o`qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o`qituvchining o`z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

O`qituvchining mahorati asosan sinf, auditoriya mashg`ulotlarida yaqqol ko`rinadi. Chunki o`quv mashg`ulotlari o`zining mazmun va mohiyatiga ko`ra o`qituvchining o`quv yurtidagi asosiy ishidir. Shu sababli u ilmiy, g`oyaviy va ommabop bo`lishi, turmush bilan o`quvchi talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan bog`lanishi zarur.

Ta'lim jarayonida o`qituvchi bilan o`quvchi talabalar o`rtasida o`zaro hurmat, fikr olishuv, samimiy munosabat, asosiy maqsadga erishishda hamkorlik lozim. Shunday ekan, o`quv mashg`ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor.

Qobiliyat va mahorat o`qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o`z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o`qishi, o`rganishi va

izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchali zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O'qituvchining mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongliligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodikligiga, bilim va fikr doirasining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki, kishida bilim, fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun o'qituvchilik sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'quvchi, talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarni yangilab borishi zarur. Buning uchun ko'p o'qishi, o'rganishi lozim.

O'qituvchini mahoratiga baho berishda uni ta'limni qaydarajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir. Uzluksiz ta'limda dars va ma'ruzalarni mukammal tashkil qilishi o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tilgan mavzular yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularning iymoni, e'tiqodi va mafkuralarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, dastlab dars va ma'ruzalarda ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham darsning sifati belgilaydi.

Ma'lumki, pedagogik bilimlar pedagogik mahorat, yuksak darajadagi kasbiy mahoratning nazariy asosi hisoblanadi. Pedagogikaga oid umumiy bilimlar tizimi ta'lim va tarbiyani tashkil etishning qonuniyatlari, mohiyati va tamoyillari, pedagogik amaliyotning in'ikosi, pedagogika nazariyasining empirik asosi sifatidagi pedagogik faktlar haqidagi empirik bilimlarning dialektik bog'lanishidan iboratdir.

Pedagogikaga oid umumiy bilimlar guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- pedagogikaning asosiy g'oyalari, konsepsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish;

- pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish;

- asosiy pedagogik faktlarni bilish;
- ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

Birinchi guruh tarkibida quyidagi asosiy metodologik qoidalarni bilish zarur:

- ta'limning ijtimoiylashuvi;
- ta'lim-tarbiya maqsadlari, mazmuni va uslublari davlat va jamiyat talablarining, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar bilan belgilanishi;
- pedagogik jarayonning izchilligi va yaxlitligi;
- pedagogika nazariyasi va amaliyotining dialektik aloqadorligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadlari, mazmuni, uslublari va shakllarining mushtarakligi;
- tarbiyaga nisbatan har taraflama yondashuv;
- bolaning yoshini va rivojlanish darajalarini hisobga olish va h. k.

Ikkinchi guruh tarkibida ta'lim va tarbiyaning qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, shakl va uslublari, maktabni boshqarish va unga rahbarlik qilish, pedagogika nazariy g'oyalari, ma'naviy, estetik, jismoniy tarbiya usuli kabilarni bilish tashkil lozim.

Uchinchi guruhga har qanday pedagogik tajriba mazmunining ajralmas qismini tashkil etadigan, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadigan pedagogik faktlarni bilish kiradi. Tahlil qilish, tushunib etish va umumlashtirish nazariyani boyitadi. Eng noyob va muhim faktlar bilan boyigan nazariya esa yanada rivojlanadi va pedagogik amaliyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy-pedagogik bilimlar tizimiga metodologik, nazariy va uslubiy bilimlar kiradi.

I. Ya. Lerner bilimlarni quyidagi to'rt turga bo'lib o'rganishni taklif qiladi:

- metodologik (pedagogik hodisalarni bilish yo'llari haqidagi) bilimlar;
- nazariy (tushuntiruvchi va mo'ljal beruvchi) bilimlar;
- pedagogikkga oid umumiy amaliy (pedagogik amallarni bajarish usullari haqidagi) bilimlar;
- amaliy (muayyan pedagogik jarayonlar uchun mo'ljallangan) bilimlar.

Qayd etilgan bilim guruhlari pedaggik madaniyat asoslarining shakllanish ehtiyojini yetarli darajada aks ettiradi, deb hisoblab, ushbu tasnifga ilmiy-pedagogik bilimning asosiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish va metodologik, nazariy, uslubiy hamda texnologik bilimlarni farqlash lozim.

Ayrim tadqiqotlarda turli bilim darajalari farqlanadi:

- tanishish darajasi (narsalar va hodisalarni, ularning xossalarini tanish, farqlash va taqqoslash);

- fodalash darajasi;

- bilish – ko`nikma hosil qilish (namuna bo`yicha);

- bilish – o`zgartirish.

Bilimlar tizimligining to`rt darajasi mavjud:

- aloqalarning mahalliy xususiyati (muayyan tushunchalar, atamalar o`rtasidagi bog`lanishni ko`ra olmaslik, masalan, o`quvchilar qo`shimcha qiymat va daromadni o`zaro bog`lay olmaydilar);

- qisman tizimli aloqalar (muayyan mavzu, masala bo`yicha bog`lanishlar tizimi mavjud bo`lib, bunda boshqa masalalar bilani bog`lanish kuzatilmaydi);

- tizim ichidagi aloqalar (fan bo`yicha bilimlar hamda qonuniyatlar o`rtasidagi aloqalar tizimi mavjud);

- fanlararo aloqalar (fanga oid bilimlar bir necha fanlar ta'sirida shakllanadi).

Pedagogik bilimlar o`qituvchi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunga qaramay, ko`pgina tadqiqotchilar o`qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, ayniqsa, uning pedagogik bilimlari hozirgi davr talablariga mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Pedagogik amaliyotdagi ko`pgina kamchiliklar o`qituvchining nazariya bilan qiziqmasligi natijasida ro`y beradi. O`qituvchilar bilan o`tkazilgan suhbatlar ularning o`z faoliyatlarini psixologik va pedaggik jihatdan asoslab bera olmasliklarini ko`rsatadi.

Pedagogik bilimlar pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismiga aylanmog`i darkor, chunki ularsiz pedagogik ko`nikmalar shakllanmaydi. Ma'lumki, bilim va ko`nikmalar o`rtasida dialektik bog`lanish mavjud. Ko`nikmalar zamirida bilimlar yotadi, lekin ko`nikmalar taqlid qilish, o`rganish mexanizmi asosida, lozim

darajada tushunib etmasdan shakllanishi ham mumkin. Boshqa tomonlan, ko`nikmalar bilim manbai hisoblanadi.

Amaliy faoliyatda bilimlardan samarali foydalanish muammosini yechishga oid muayyan umumilmiy yondashuvlar bilimlarni o`zlashtirish muammosini umumiy tarzda tadqiq qiladigan semantika asosida belgilanadi. Tor ma'nodagi semantika – bu so`zlarning ma'nosi haqidagi fan, lekin so`nggi yillarda uning qamrov doirasi kengayib bormoqda. Keng ma'nodagi semantika insonning shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishi jarayonida tabiat, jamiyat, texnika bilan o`zaro ta'sirga kirishishi asnosida oladigan axborotlari ma'nosini ifodalovchi fandır. Didaktikaning semantik muammolari pedagogika fani va pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishida o`ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborotning ma'nosi transformatsiya va reduksiya jarayonida ko`pincha o`zgarib ketadi yoki qashshoqlashadi. Ilmiy ish mualliflariga mutlaqo tushunarli bo`lgan g`oyalarni obyektiv ifodalash ko`pincha qiyin kechadi. Bu fanning o`zida ham jiddiy didaktik va semantik muammolar mavjudligini anglatadi. Ilmiy ishlanmalarga maxsus didaktik talablar qo`yilmaydi – faqat vakolatli ilmiy instantsiyalar tomonidan tekshirilishi mumkin bo`lgan talablarga, ya'ni ilmiy izchillik, nazariy va eksperimental ishonchlilikkagina rioya qilinadi. Bu didaktik kamchiliklar uning hozirgi muammolariga nisbatan keng yondashish imkonini bermasligi ta'kidlanadi.

Texnologik daraja ilmiy bilimlarni va tavsiya etilgan ilg`or tajribani amaliyotga joriy etish maqsadida ularni sifatli va samarali aks ettirgini nazarda tutadi. Aks ettirish to`g`ridan to`g`ri nusxa ko`chirish, degani emas. Bunda muayyan uslub qo`llanilayotgan shart-sharoit, xususan, o`quvchilarnig tayyorgarlik darajasi, ularning odatlari, o`qituvchilarning texnologik madaniyat darajasi hisobga olinishi lozim.

Ta'kidlash zarurki, o`qituvchining texnologik madaniyati pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Texnologik madaniyatli o`qituvchi pedagogika fani va amaliyotini birlashtiradi.

Tadqiqot darajasi shu bilan tavsiflanadiki, o`qituvchi ilmiy bilimdan foydalanuvchidan uni yaratuvchiga aylanadi. Yangilik yaratuvchi o`qituvchilar

amaliyotning ilmiy salohiyatini, tadqiqot faoliyati uchun maydonning mavjudligini namoyish eta oladilar.

O`zbekiston ta'lim tizimi rivojlanishining “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish bosqichidadir. Islohotlarning muvaffaqiyatlari tizimning asosiy bo`g`ini bo`lgan ta'lim muassasasining qanday o`zgarishi yaqin kelajakda va istikbol rejalarda nimalarni belgilashida o`z aksini topadi.

2.2. Psixologiyada pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirish va uning psixodiagnostikasi.

Kasbiy tayyorgarligiga to'la ega bo'lmoqchi pedagoglar, eng avvalo, milliy istiqloq qoidalarini, DTS ni chuqur bilishlari lozim, shundagina yoshlarning ongiga singdirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarning samaradorligi oshadi.

O'qituvchi shaxsi yo'nalganligini aniqlash metodikasi orqali kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlaymiz. Ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin (A, V, S tarzda).

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasidan Sizning ichki dunyoingizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz-«V»). Endi javob varaqasining tegishli satrida «V» harfini tanlab, uning chap yoniga («to'g'ri keladi» degan so'zlar ostiga) belgi («+») qo'ying.

O'sha savolni yana bir marta o'qing. Endi holagan ikki javob varianti («A» va «S») orasidan sizning nazaringizda eng kam to'g'ri keladiganini yoki siz uchun qimmatini eng past bo'lishini tanlang. (faraz qilamiz «A») So'ngra javob varaqasining yana o'sha satridan «A» harfini tanlab, uning o'ng yoniga («to'g'ri kelmaydi» so'zlari ostiga) belgi («+») qo'ying. Uchinchi javob variantiga esa (bizning misolda-«S») hech qayerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga ikkitadan «+» belgilgisini qo'yishimiz kerak bo'ladi: birinchisi-A, V yoki S variantlaridan birining «to'g'ri keladi» ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi- shu variantlarning «to'g'ri kelmaydi» katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchta variant javoblari tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to'g'ri javob xayolga birinchi kelgan javobdir.

1.Men, qachonki:

- a) qilayotgan ishimni atrofdagilar qo'llab -quvvatlashsa;
- b) biror ishni o'zimga ma'qul, ko'nglimdagidek bajarsam;
- s) atrofida yaxshi do'stlarim borligini xis etsam, o'zimda katta qanoatlanish hosil qilmana.

2. Bordi-yu kelajakda sportchi (futbolchi, volebolchi) bo`lganimda edi:

- a) o`yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi-trener bo`lishni istardim;
- b) mashhur o`yinchi bo`lishni istardim;
- s) komanda kapitani bo`lib tayinlanishimni istardim.

3. Haqiqiy pedagogk quyidagi xususiyatga ega bo`lishi kerak:

- a) talabalarga alohida-alohida yondoshib, har biri bilan qiziqsin;
- b) talabalarda predmetga nisbatan shunday qiziqish uyg`otsinki, ular shu predmet doirasida ko`proq bilim olishgan intilsin;
- s) sinf jamoasida shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo`rqmay o`z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsin.

4. Men:

- a) o`zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman;
- b) jamoada ko`pchilik bilan mehnat qilishni yoqtirdigan kishilarni yaxshi ko`raman;
- s) topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman.

5. Agar mening do`stim:

- a) odamlarni tushunadigan, kerak bo`lganda qo`lidan kelguncha yordam bera oladigan bo`lsa;
- b) har doim so`zining ustidan chiqa oladigan, sadoqatli bo`lsa;
- s) aqlli va har narsaga qiziqadigan inson bo`lsa, qanoatlanish xosil qilardim.

6. Eng yaqin do`st shunday kishiki, u:

- a) men bilan yaxshi munosabatlarda bo`lsa;
- b) eng qiyin paytda ham ishonchni oqlaydigan bo`lsa;
- s) katta hayotiy tajribaga va ko`p yutuqlarga erishgan bo`lsa.

7. Men:

- a) ishimning o`ngidan kelmasligining;
- b) o`rtoqlarim bilan munosabatimni buzilishini;
